UZTELECOM

O‘ZBEKTELEKOM AKSIYADORLIK KOMPANIYASI

АКЦИОНЕРНАЯ КОМПАНИЯ УЗБЕКТЕЛЕКОМ

BUYRUG‘I

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining yangi tahrirdagi Ichki nazorat tog‘risidagi nizomi tasdiqlanganligi to‘g‘risida

“O‘zbektelekom” AK (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) aksiyadorlarining 2022-yil 30-iyundagi umumiy yig‘ilishi (56-son bayonnomasi) qarori bilan Kompaniyaning yangi tahrirdagi Ichki nazorat tog‘risidagi nizomi tasdiqlangan.

Kompaniyada korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida, sifatli amalga oshirish maqsadida, **buyuraman:**

1. Kompaniya ijroiya apparatining boshqarma, xizmat va bo‘lim boshliqlari, shuningdek, Kompaniya tarkibidagi filiallar rahbarlari “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining yangi tahrirdagi Ichki nazorat tog‘risidagi nizomini ma’lumot va ijro uchun qabil qilsinlar (ilova qilinadi).

2. Marketing va biznesni rivojlantirish boshqarmasi (Sh. Shamansurov) yangi tahrirdagi Ichki nazorat tog‘risidagi nizomni Kompaniyaning rasmiy veb-saytiga joylashtirish ishlarini amalga oshirsin.

3. Ushbu buyruq bajarilishi bo‘yicha nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Bosh direktor N. Xasanov

Toshkent sh.
2022-yil “26” - 08
334-son

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi

TASDIQLANGAN

“O‘zbektelekom” AK
aksiyadorlarining
2022-yil 30-iyundagi umumiy
yig‘ilishining 56-son bayonnoma
qarori

Ichki nazorat to‘g‘risida
NIZOM
(yangi tahrirda)

Toshkent

Ichki nazorat to‘g‘risida
NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1 Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “Aksiyadorlik jamiyatining ichki nazorati to‘g‘risida”gi namunaviy nizom, “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi (keyingi o‘rinlarda - Kompaniya) Ustavi, Korporativ boshqaruv kodeksi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa ichki hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

1.2 Ushbu Nizom ichki nazorat tizimining maqsad va vazifalarini, uning ishlash tartib-tamoyillarini, shuningdek, Kompaniyaning ichki nazorat organlarini va mas’ul shaxslarni belgilaydi.

2. Ichki nazorat tizimining ta’rifi va maqsadlari

2.1 Ichki nazorat tizimi Kompaniya faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, Kompaniyaning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha belgilangan maqsadlariga erishish bo‘yicha oqilona va yetarli darajada risklarni boshqarish, nazorat qilish va korporativ boshqaruv jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan doimiy jarayon hisoblanadi:

faoliyatning samaradorligi va unumdorligi, shu jumladan, faoliyat ko‘rsatishning samaradorlik darajasi, foyda olish va aktivlarni himoya qilish;

moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va to‘g‘riligi;

Kompaniya xaridlar, ish yuritish, sotuvlar, tijorat, kadrlar masalasi, huquqiy va tartibga soluvchi faoliyat kabi sohalarda korrupsiya risklarini boshqarish ustidan nomoliyaviy nazorat;

Kompaniya faoliyatini tartibda soluvchi qonunlar va me’yoriy hujjatlarga rioya qilish.

2.2 Ichki nazorat tizimi - Kompaniyaning Taftish komissiyasi, Ichki audit xizmati, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linma, Kuzatuv kengashi, ijroiya organi va barcha darajadagi boshqa xodimlar (keyingi o‘rinlarda – ichki nazorat subyektlari) va barcha funksiyalari bo‘yicha ichki hujjatlar bilan tartibga solinadigan ichki nazoratning tashkiliy tuzilmasi, nazorat choralari, tartiblari va usullari mujmuidir. Ichki nazorat organlari xodimlariga qo‘yiladigan malaka talablari ularning faoliyati to‘g‘risidagi nizomlarda belgilanadi.

2.3 Ichki nazorat tartib-taomillari – Kompaniyaning Taftish komissiyasi, Kuzatuv kengashining audit bo‘yicha qo‘mitasi, Kuzatuv kengashining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, ijroiya organi, Kompaniyaning ichki nazoratni amalga oshirishga vakolatli bo‘linmalari (keyingi o‘rinlarda – vakolatli bo‘linma) tomonidan Kompaniyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlari va ichki hujjatlari buzilishi holatlarini aniqlash, Kompaniya oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish samaradorligini, shuningdek, ichki nazorat tartib-qoidalarini amalga oshirish jarayonida ichki nazorat subyektlari bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarini baholashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

2.4 Ichki nazoratning asosiy maqsadi aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, shuningdek, korrupsiya va boshqa risklarni minimallashtirish.

2.5 Ichki nazorat operativ tarzda quyidagilarni ta'minlash uchun mo'ljallangan:

Kompaniya aktivlarining saqlanishi, resurslardan oqilona va samarali foydalanish;

amaldagi qonunchilik va Kompaniyaning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish;

Kompaniyaning o'rta va uzoq muddatli istiqbolli rivojlanish strategiyalarini va biznes-rejalarini amalga oshirish;

Kompaniyaning buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv ma'lumotlarining to'liqliligi va ishonchliligi;

Kompaniya faoliyatida yuzaga keladigan xavflarni aniqlash, identifikatsiyalash va tahlil qilish;

Kompaniya faoliyatidagi risklarni rejalashtirish va boshqarish, shu jumladan risklarni boshqarish bo'yicha o'z vaqtida va yetarli darajada yechimlar bo'yicha qarorlar qabul qilish;

ishbilarmonlar va iste'molchilar orasida Kompaniyaning ijobiy obro'sini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash;

ijroiya organi, Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi a'zolariga belgilangan haq va kompensatsiya to'lovlari miqdorining holisligi va shaffofligini ta'minlash.

3. Ichki nazorat tizimining faoliyati prinsiplari

3.1 Kompaniyada ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

uzluksiz ishlash – ichki nazorat tizimining doimiy va to'g'ri ishlashi Kompaniyada normadan har qanday og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash va kelajakda ularning yuzaga kelishini oldini olish imkonini beradi;

ichki nazorat tizimining barcha ishtirokchilarining javobgarliligi – har bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarini bajarish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchisi tomonidan nazorat qilinadi;

vazifani taqsimlash – Kompaniyaning nazorat funksiyalari takrorlanishiga yo'l qo'ymaslikka intiladi va bu funksiyalar xodimlar o'rtasida shunday taqsimlanishi kerakki, ma'lum aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, ularni inventarizatsiya qilish va xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq funksiyalar bitta shaxsga yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi;

bitimlarni to'g'ri kelishish va tasdiqlash – Kompaniya mas'ul xodimlarni o'z vakolatlari doirasida barcha moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini tasdiqlash tartibini o'rnatishga intiladi;

Kompaniyada faoliyat olib borayotgan barcha ichki nazorat subyektlarining nazorat funksiyalarini lozim darajada amalga oshirishda javobgarliligi;

Kompaniyaning barcha bo'linmalarining aniq o'zaro hamkorligi asosida ichki nazoratni amalga oshirish;

uzluksiz rivojlanish va takomillashtirish – Kompaniya ichki nazorat tizimining yangi muammolarni hal qilish, tizimni kengaytirish va takomillashtirish zarurligiga moslashtirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashga intiladi;

og'ishlar to'g'risidagi hisobotni o'z vaqtida berish – Kompaniya og'ishlarni bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan shaxslarga tegishli ma'lumotlarni yetkazish uchun eng qisqa vaqtni belgilab qo'yadi;

Kompaniya faoliyatining nazorat o‘rnatilayotgan yo‘nalishlari ustuvorliligi – ichki nazorat tizimi bilan qamrab olingan strategik yo‘nalishlar, hatto ularning faoliyat ko‘rsatish samaradorligi (“xarajat – iqtisodiy samara” nisbati)ni o‘lchash qiyin bo‘lgan taqdirda ham, ajratib ko‘rsatiladi.

4. Ichki nazorat tizimining komponentlari

4.1 Ichki nazorat tizimi quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlarni o‘z ichiga oladi:

Kompaniya xodimlarining axloqiy qadriyatlari va malakasini, boshqaruv siyosatini, rahbariyat tomonidan vakolati va majburiyatlarini taqsimlash usuli, tashkilot tuzilmasi va xodimlarni rivojlantirish, shuningdek, Kuzatuv kengashi tomonidan rahbarlik va boshqaruvni o‘z ichiga olgan nazorat muhiti;

risklarni baholash – bu turli darajadagi o‘zaro bog‘liq va ichki izchil bo‘lgan muayyan vazifalarni bajarishda tegishli xavflarni aniqlash va tahlil qilish;

nazorat faoliyati boshqaruv qarorlarining bajarilishini ta’minlashga yordam beradigan siyosat va tartiblarni umumlashtiradi va keng ko‘lamli harakatlarni o‘z ichiga oladi: tasdiqlar, sanksiyalar berish, tekshirishlarni o‘tkazish, kundalik faoliyatni nazorat qilish, aktivlar xavfsizligini ta’minlash va vakolatlarni ajratish;

axborot bilan ta’minlash va axborot almashinuvi faoliyati, ma’lumotlarni o‘z vaqtida va samarali aniqlash, ularni ro‘yxatga olish va almashish, shu jumladan, ichki nazoratning barcha subyektlari tomonidan Kompaniyada ichki nazoratni amalga oshirish bo‘yicha qabul qilingan siyosat va tartiblar to‘g‘risida tushunchalarni shakllantirish uchun axborot almashinuvining samarali kanallarini yaratishga qaratilgan;

monitoring – boshqaruv va nazorat funksiyalarini o‘z ichiga olgan jarayon bo‘lib, jarayon davomida tizim sifati vaqt o‘tishi bilan baholanadi. Ichki nazorat tizimini baholash moliyaviy hisobotlarning ishonchligiga, xaridlar faoliyatining shaffofligiga ta’sir ko‘rsatadigan xatolar ehtimolini aniqlash, ushbu xatolarning ahamiyatini aniqlash va belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ichki nazorat tizimi tomonidan ta’minlash qobiliyatini aniqlash. Kompaniyada ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash uchun Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra, Kuzatuv kengashining taklifiga asosan mustaqil professional tashkilot – maslahatchi jalb qilinishi mumkin.

5. Ichki nazorat uchun mas’ul organ va shaxslar

5.1 Ichki nazoratni Kuzatuv kengashi, Kuzatuv kengashining audit bo‘yicha qo‘mitasi, Kuzatuv kengashining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Taftish komissiyasi, ijroiya organi rahbari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linma, ichki audit xizmati, shuningdek, barcha darajadagi boshqa xodimlar amalga oshiradilar. Shu bilan birga har biri ichki nazorat uchun belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

5.2 Kompaniyaning bo‘linmalari funksiyalari, huquq va majburiyatlari, javobgarligi, kompensatsiyalar va to‘lanadigan haqlarni hisoblash tartibi ichki hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan. Ushbu hujjatlar, shuningdek, ichki nazorat masalalariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan boshqa hujjatlar ushbu Nizomga zid bo‘lishi mumkin emas.

5.3 Kompaniyaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratning tizimli xarakterini ta’minlash maqsadida ichki nazorat tartib-qoidalari Ichki audit xizmati tomonidan Kompaniyaning boshqa organlari va bo‘linmalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

5.4 Kuzatuv kengashining vazifalariga quyidagilar kiradi:

ichki nazorat tizimini rivojlanish yo‘llarini belgilash hamda ayrim operatsiyalar va strategiyalarni ma’qullash;

Kompaniya ijroiya organi rahbarinining muntazam hisobotlarini, ichki va tashqi audit, Taftish komissiyasi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linma xulosalari va hisobotlarini hamda ichki nazoratning barcha jihatlari bo‘yicha o‘z kuzatuvlari, shu jumladan, moliyaviy nazorat, nomoliyaviy nazorat, operativ nazorat, qonun hujjatlariga rioya qilinishi ustidan nazorat, ichki siyosat va jarayonlar nazoratini tahlil qilish va baholash natijalari asosida ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligi yuzasidan Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida hisobot taqdim etish;

Kompayaniyaning ichki audit tuzilmasini va tarkibini belgilash;

ichki nazorat tartiblarini doimiy takomillashtirish.

5.5 Moliyaviy hisobotlarning aniqligi va to‘liqligi, Kompaniyaning ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligi ustidan nazorat Kompaniya Kuzatuv kengashining audit bo‘yicha qo‘mitasi hamda Kuzatuv kengashining odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga yuklanadi. Qo‘mitalarning maqsadi, vazifalari, huquqlari, vakolatlari va majburiyatlari ushbu Qo‘mitalar to‘g‘risidagi nizomlarda belgilab qo‘yiladi.

5.6 Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki nazorat siyosatiga muvofiq uning faoliyati uchun javobgarlik Kompaniya ijroiya organi zimmasiga yuklanadi. Ijroiya organi rahbari ichki nazorat tizimining tartib-qoidalarini amalga oshiradi va uning samarali ishlashini ta’minlaydi, Kompaniyannig barcha risklari, ichki nazorat tizimining jiddiy kamchiliklari, shuningdek, ularni bartaraf etish choralari bo‘yicha rejalari va natijalari to‘g‘risida Kuzatuv kengashini o‘z vaqtida xabardor qiladi.

5.7 Har qanday darajadagi bo‘linmalarning xodimlari (shu jumladan rahbar xodimlar) o‘z vakolati doirasida nazoratni amalga oshirish strategiyalari va tartiblarini batafsil ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadilar. Nostandart holatlar va muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish ularning mas’uliyati hisoblanadi. Muayyan bitimlardan kelib chiqadigan muhim masalalar yoki xavflar to‘g‘risida xodimlar Kompaniyaning yuqori rahbariyatini xabardor qiladilar.

5.8 Kompaniya va uning alohida bo‘linmalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish vazifalari Taftish komissiyasiga yuklatilgan bo‘lib, uning roli, maqsadlari, vazifalari va vakolatlari “Taftish komissiyasi to‘g‘risida”gi nizomda aks ettirilgan.

5.9 Kompaniyaning moliyaviy-xo‘jalik operatsiyalarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Kompaniya Ustaviga muvofiqligi, shuningdek, buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarning to‘liqligi va ishonchliligi ustidan muntazam ravishda nazoratni amalga oshirish uchun javobgar bo‘lib Ichki audit xizmati hisoblanadi. Ichki audit xizmati Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan “Ichki audit xizmati to‘g‘risida”gi nizom asosida o‘z faoliyatini olib boradi.

5.10 Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga, ISO 37001 xalqaro standartiga menejment tizimiga rioya qilish uchun javobgarlik vakolatlari korrupsiyaga qarshi ichki

nazorat va komplayens bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linma zimmasiga yuklanadi. Uning faoliyati “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linma to‘g‘risidagi nizom”da aks ettiriladi.

5.11 Kompaniyaning Ichki audit xizmati ichki nazorat tizimining audit natijalari bo‘yicha Kuzatuv kengashining audit bo‘yicha qo‘mitasiga hisobot beradi. Kompaniyaning Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashining audit bo‘yicha qo‘mitasiga hisobdordir.

5.12 Quyidagi shaxslar Kompaniyaning Ichki audit xizmati lavozimlarini egallashga haqli emas:

Iqtisodiy sohadagi jinoyatlar yoki tartib-intizomga qarshi jinoyatlar uchun sudlangan shaxsalar;

Kompaniya ijroiya organi rahbari yoki a’zosi bo‘lgan shaxslar;

Kompaniyaning raqibi bo‘lgan boshqa yuridik shaxslarning ta’sischilari (majoritar aksiyadorlari, ishtirokchilari), ijroiya organi rahbarlari yoki a’zolari yoki xodimlari;

Ichki audit xizmati tarkibiga kiruvchi shaxslarga nisbatan boshqa talablar Kuzatuv kengashining audit bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan belgilanishi mumkin.

5.13 Ichki nazorat tizimining to‘g‘ri ishlashi xodimlarning kasbiy mahoratiga ham bog‘liq. Kompaniya xodimlarini tanlash, ishga olish, o‘qitish va rag‘batlantirish tizimlari xodimlarning yuqori malakasi va axloqiy-me’yorlarga muvofiqligini ta’minlashga harakat qiladi.

6. Ichki nazorat tartibi va usullari

6.1 Kompaniyaning ichki nazorat tartib-qoidalariga quyidigalar kiradi:

Kompaniyaning turli darajadagi boshqaruvida o‘zaro bog‘liq va izchil maqsadlarni va vazifalarni belgilash;

Kompaniya faoliyatining maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan va mavjud operatsion, moliyaviy, strategik va boshqa xavflarni aniqlash va tahlil qilish;

ichki nazoratning muhim tarkibiy qismlarini baholash;

biznes jarayonlarning ichki nazorat tizimlari samaradorligini baholash;

Kompaniyaning tarkibiy bo‘linmalari, mansabdor shaxsalari va boshqa xodimlari faoliyatining mezonlarini aniqlash va baholash;

moliyaviy va boshqa ma’lumotlarni oldingi davlar uchun taqqoslanadigan ma’lumotlar yoki faoliyatning kutilayotgan natijalari bilan solishtirishda ko‘rib chiqish;

hodisalar, operatsiyalar va o‘tkazmalarni qayd etishning yetarli darajadagi usullaridan foydalanish;

aktivlarning xavfsizligini tekshirish;

ichki nazorat tartib-qoidalarini to‘g‘ri hujjatlashtirish;

ichki nazorat tizimi sifatini muntazam ravishda baholash;

Kompaniyaning barcha xodimlarini ichki nazorat sohasidagi vazifalari to‘g‘risida xabardor qilish;

Kompaniya xodimlari o‘rtasida asosiy vazifalarning taqsimlanishi (shu jumladan bitimlarni, operatsiyalar hisobotini ma’qullash va tasdiqlash, resurslarni qabul qilish va saqlash, operatsiyalarni tahlil qilish va tekshirish);

bitimlar faqat tegishli vakolatga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan tasdiqlanishi va amalga oshirilishi;

ichki nazorat maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan boshqa jarayonlar.

6.2 Ichki nazorat tartib qoidalarini o‘tkazishda tekshirish, kuzatish, tasdiqlash, qayta hisoblash usullari, shuningdek, ichki nazorat tartib qoidalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa usullar qo‘llaniladi.

7. Yakuniy qoidalar

7.1 Ushbu Nizom, shuningdek, unga kiritiladigan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarori bilan tasdiqlanadi.

7.2 Ushbu Nizomga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar Kompaniya Kuzatuv kengashi a’zolari, tashqi auditor, Taftish komissiyasi, Ichki audit xizmati, ijroiya organi rahbari hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va komplayens bo‘yicha mas’ul tarkibiy bo‘linmasi taklifiga binoan kiritiladi.

7.3 Agar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlariga kiritilgan o‘zgartirishlar natijasida ushbu Nizomning ayrim moddalari ularga zid bo‘lsa, ushbu moddalar o‘z kuchini yoqotadi va Nizomga o‘zgartirishlar kiritilgunga qadar Kompaniya O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va normativ-huquqiy hujjatlariga amal qiladi.